

Qaror va ijro

// 14.08.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qaror-va-ijro>



Prezidentimizning “Kambag’allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risidagi PQ-330-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “O’zkimyosanoat” AJga Farg’ona viloyati Yozyovon tumanidagi “Ishtirxon”, “Yangiobod” va “Suvliariq” MFYlari biriktirilgan.

“O’zkimyosanoat” AJ ishchi guruhi ushbu mahallalarda aholining bandligini oshirish, yangi ish o’rinlarini yaratish, infratuzilmaviy obyektlarni ta’mirlash kabi bir qator tizimli ishlarni olib bordi.



Mana shunday xayrli ishlardan birida ushbu mahallalarda ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiruvchi fuqarolarga Jamiyat tomonidan 4 turdagi 63 ta uy-ro'zg'or buyumlari, o'z-o'zini band qilish uchun maxsus texnikalar va ish qurollari topshirildi.

Shuningdek, 24 ta oilaga quvvati 5 kVt bo'lgan, umumiy 125 kVt quvvatdagi quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha sertifikatlar taqdim etildi.



"O'zkimyosanoat" AJ mazkur hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada samarali va tizimli tashkil etishda xayrli ishlarni davom ettiradi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati